XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 - yil 6 - iyul VI-50-118-8-109-K/22 Angor tuman hokimligi

Tumandagi ayrim mahalla nomlarini o‘zgartirish va tasdiqlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli eksperti xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomi o‘zgarayotgan mahalla va aholi punktlari nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (A.Xudoyorov), tuman qurilish bo‘limi (B.Usmonov), Davlat kadastrlar palatasi Angor tumani filiali (E.Mengliyev) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan hamda tasdiqlangan mahallani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (S.Choriyev) nomi o‘zgargan hamda tasdiqlanayotgan mahallada yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur

hudud aks ettirilgan belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (B.Usmonov) hududda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Mirzayev)ga mahalla fuqarolar yig‘inlari rahbar-xodimlari bilan bir oy muddatda Qonun talablari asosida nomi tasdiqlangan, o‘zgartirilgan mahalla va aholi punktlarini xatlab chiqilishini;

nomlari tasdiqlangan mahalla va aholi punktlariga belgilangan tartibda ko‘rsatgich belgi va peshlavhalarni o‘rnatilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati hamda “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Yu.Xalimov) zimmalariga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Hokim **SH.B.ABDULLAYEV**

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2022 yil 6 iyuldagi
VI-50-118-8-109-K/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Angor tumandagi mahalla nomlarini o‘zgartirish va tasdiqlash to‘g‘risidagi takliflar

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspertiza xulosasi
1.	Aholi punkti	Angor tumani Sharq guli MFY	Do‘stlik	1. Sharq guli 2. Zebuzar 3. Go‘zal diyor	Sharq guli